

BADIIY MATNLARDA METAFORALARNING IFODALANISH DARAJALARI

Gulshan Samadovana Nasrullaeva,

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida dotsenti*

Annotatsiya: maqolada badiiy matnlarda qo‘llanilgan metaforalarning ifoda xususiyatlari, daoajalari va ma‘no qirralari, leksik xususiyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, yozuvchining o‘ziga xos ifoda imkoniyatlari va mahoratini ko‘rsatib turuvchi jihatlar ilmiy tekshirib ko‘rilgan. Badiiy matnlarda, ayniqsa, katta epik janrdagi asarlarda metaforadan unumli foydalanishning pragmatik imkoniyatlari lisoniy tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: leksema, leksik ma‘no, nasriy matn, o‘qitish usuli, badiiy matn, diskurs, metaforik ma‘no, roman, epik asarlar, ma‘no qirralari, uslubiy imkoniyat, pragmatik taqlil, lingvistik tadqiq, konnatativ ma‘no, dialog, lug‘aviy ma‘no

УРОВНИ ЭКСПРЕССИИ МЕТАФОР В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ

Гульшан Самедовна Насруллаева,

*доцент кафедры «Узбекский язык и литература» Ташкентского университета
информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми*

Аннотация: в статье исследуются выразительные возможности, грани смысла, лексические особенности метафор, используемых в художественных текстах. Также были научно исследованы аспекты, свидетельствующие об уникальных выразительных возможностях и мастерстве писателя. Прагматические возможности продуктивного использования метафоры в художественных текстах, особенно в произведениях великого эпического жанра, были изучены лирически.

Ключевые слова: лексема, лексическое значение, прозаический текст, методика обучения, художественный текст, дискурс, метафорическое значение, роман, эпические произведения, грани смысла, методологические возможности, прагматический анализ, лингвистическое исследование, коннатативное значение, диалог, лексическое значение

LEVELS OF METAPHOR EXPRESSION IN LITERARY TEXTS

Gulshan Samadovna Nasrullayeva,

*Associate Professor of the Department of Uzbek Language and Literature at the Tashkent
University of Information Technology named after Muhammad al-Khorezmi*

Abstract: the article explores the expressive possibilities, facets of meaning, and lexical features of metaphors used in literary texts. The aspects that testify to the unique expressive capabilities and skill of the writer were also scientifically investigated. The pragmatic possibilities of productive use of metaphor in literary texts, especially in works of the great epic genre, have been studied lyrically.

Keywords: lexeme, lexical meaning, prose text, teaching methodology, literary text, discourse, metaphorical meaning, novel, epic works, facets of meaning, methodological possibilities, pragmatic analysis, linguistic research, connotative meaning, dialogue, lexical meaning

O‘zbek tilshunosligida olamni teranroq anglash vositasi bo‘lgan metaforalarni o‘rganishga doir bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, U.S.Qobulova metaforani adabiy istiloh deb hisoblaydi hamda uni o‘xshatish (tashbeh)ning o‘xshatish vositalari tushib qolishi bilan farqlaydi. Boshqa tillarda bo‘lgani kabi, metaforalarni tekshirish o‘zbek tilshunosligida ham XX asrning so‘nggi o‘n yilliklariga kelib o‘zining jiddiy ilmiy-tadqiqiy rivojini topdi.

O‘zbek leksikologiyasiga doir ko‘p qirrali tadqiqotlarni olib borgan olim M.M.Mirtojiev metaforalarni nutq va til hodisalariga ajratadi. Ayniqsa, D.S.Xudayberganova metaforalar tadqiqiga yangicha, zamonaviy yondashadi. Olim metaforalarni matnda muhim kognitiv-semantik ahamiyat kasb etish bilan birga, til egalarining milliy-madaniy tafakkuriga xos jihatlarni namoyon etuvchi hodisa sifatida baholaydi va o‘xshatish hamda metaforalar asosiga qurilgan matnlarning muayyan tilda qoliplashgan

matn shakllarini aniqlash imkoniyatini berishini aytadi, metaforalarni ularni matnning pretsedent shakllari sifatida baholaydi.

Biroq tilshunoslikda antropotsentrik tadqiqotlar olib borilayotgan bo'lsa-da metaforalarning antropomorfik turi maxsus tadqiq etilayotgani yo'q. Antropomorfik metaforalarni turli diskuslar bilan bog'lab o'rganish muhim ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Antropomorfik metafora. Bu inson va unga tegisqli (xos) bo'lgan (tana a'zosi, kiyimi) predmetlar nomi asosida hosil qilingan metafora bo'lib, oyoq, qo'l, og'iz, til, tish, quloq, yeng, yoqa kabi leksemalar ma'nosining metaforik usulda ko'chishi.

She'riy matnlarda antropomorfik metaforalarning qo'llanilishi alohida o'rganishni talab qiladigan tadqiqotlardandir. Buni bir shoir ijodi misolida ham tekshirib ko'rish mumkin. Bu o'rinda Sh.Rahmonning metafora yaratish yoki mavjudlarini qo'llash mahorati e'tiborimizni tordi. Shoir qanday mavzuda yozmasin, albatta, antropomorfik metaforalardan faol foydalanadi.

Sh.Rahmon she'riyati orqalida biz buni tasdiqlaymiz: Tog'larga termulib suradi xayol.../ Oloy qirlaridan Ketar saraton,/ Sovuq shabadalar uyg'ondi tag'in./ Qusqlar qiy-chuviga to'ladir/ Osmon – Sentabr yaqin/ Ertadan-kechgacha Singlim ikkimiz,/ Soyda cho'milamiz, cho'zma otamiz./ Yarim kechgacha kelmay uyqumiz,/ Sirli yulduzlarni sanab yotamiz. Shoir she'riyatini taqlil qilganda shu ma'lum bo'ladi, u tog' obraziga juda ko'p marta murojaat qiladi. Aslida uning she'rlarida tog' metaforik ma'noga ega, ya'ni ko'pincha ko'chma ma'nolar ifodalaydi.

Shoir she'riyatidagi tog' – shoirning yuksalib ketgan ruhi, iztirobu quvonqlari. Shuning uchun bo'lsa kerak, shoirning ilk she'rlaridan to'singisigacha tog'lar u bilan yashaydi: Tog' xo'rsinib yubordi og'ir–/vodiylarga yugurdi shamol,/ yuzlarini yashirdi hilol./ Tog' xo'rsinib yubordi og'ir, Teran xobdan uyg'ondi yurak,/ Tog'lar kabi xo'rsinmoq kerak. Bu o'rinda insonlarga xos bo'lgan xo'rsinmoq, uyg'onmoq, yugurmoq fe'llari tog'ga, shamolga, yurakka nisbatan qo'llanilmoqda.

Tog' mavzusi uning eng oxirgi she'rlarida ham mavjud: Nodirajon, Shoirajon,/tanam qimir yetmaydi./ olis-olis vohalardan/ tog'larimni chaqiring./ osmon to'la havolar/ faqat menga yetmaydi.../Nodirajon, Shoirajon/ Tanam qimir yetmaydi,/ boring qorli tog'larga:/bir shoir yotibdi, deng,/ Xudoning hovlisida.../ Osmon to'la havolar/ faqat menga yetmaydi.../

Bularning hammasi Vatanga, tug'ilgan zaminga bog'langanlik, undan uzilolmaslik – muhabbat edi. Hissiyotlarini shoir metaforadan mahorat bilan foydalangan holda bayon qilgan. "Olis-olis vohalardan tog'larimni chaqiring"/ deganda, albatta, insonlarga nisbat berilmoqda.

Tog'lar shavkat Rahmon she'riyatida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, Oloy tizmalari boshqa tog'larga aslo o'xshamaydi. Ulkan nortuyalarni eslatadi. Guyoki keskir pichoqlarda tig'lanib tasqlangan qatlam-qatlam harsang to'sqlarni ko'rib, tabiatning qudratiga lol qolamiz. Namlari ham ajabtovur: Ketmontog', Kettantog', Ettantog', Eshiktosh, Beshiktosh. Bolaligi asosan tog'larda o'tganligi uchun ham Shavkat Rahmon ko'proq tog'larga murojaat qilishi shundan: Tog'lar – Nortuyalar abadiy cho'kkan,/ qurigan yillarni chaynab, kavshanib./ qani, yasovullar, tuyakasqlari, tillali, javohirli sandiqlar qani?/ qarisi talangan, qaroqchilarning/ izlarini yashirib yuborgan moziy./ yashirgan yillarning changalzorlari/ sarbonni o'ldirgan qotil ovozi./ mazkur she'r matnidan ham shoir she'riyatida metaforaning o'rnini yaqqol bilib olish mumkin.

Sh.Rahmonning she'riy asarlarida bahor manzaralari orqali yaratilgan sokin, noaniq to'vusqlar g'oyasini yaratadigan o'xshash metaforalarning quyidagi misollarini topishingiz mumkin: Bahor senga ishonar, qara,/ suzib chiqdi ko'ziga yurak —/ qarab turar senga intizor,/ sen bahorni sevishing kerak./ Ko'ziga boq, haydama uni —/ minginchi bor qilmagin xato./ Ostonangdan ketmaydi bahor,/ sen aslingga qaytmaguncha to./ Sharqiratar asov soylarin,/ nafasidan ranglar ufurar,/ o'ynayverar yashil qusqlarin,/ gullarini yondiraverar...

Bu xususiyatni bitta metafora evolyusiyasini taqlil qilish orqali ko'rsatish mumkin. Ma'lumki, Shu'lalanib, sharqirab yotar/ ko'k suvlarda oy siniqlari./ Yetib kelar muzday shabada —/ qari tog'ning xo'rsiniqlari./ Yalpizlarning bo'yin ufurib/ sho'x jilg'alar vodiya chopar./ Hovuzlarni yopinib olgan/ qurvaqalar jimlikni qopar./ Qizib ketar yer tomirlari.../ Tunga iliq bo'ylar taralar./ Birdan kaynoq yoz oqib kelar jimib qolgan bog'lar oralab./ she'rida maxsus holatda (qari tog'ning xo'rsiniqlari, oy siniqlari, sho'x jilg'alar, kaynoq yoz va boshqalar.) metaforaning, xususan, antropomorfik metaforalarning yorqin namunalari.

Quyidagi metaforada ham shoirning bahor haqidagi taassurotlari aks etgan: Subhidamda yam-yashil daraxt/ derazamga yuzini bosdi,/ kerishganday oynak sathiga —/ gullarini ohista yozdi./ Qirchillagan shabada keldi,/ ko‘pirgancha shoshib, quvonib,/ Bahor, jismi ochilib, yashnab,/ bosib ketdi atir tumani./ Go‘yo quyosh parchalanganday.../ Garq qiladi olamni farah./ Har bahorda menga erinmay/ yashamoqni o‘rgatar daraxt./ (Sh.Rahmon,89.)

Sh.Rahmon she‘riyatining maxsus tilini yaratishda antropomorfik metafora ham muhim rol o‘ynadi. Uning she‘rlaridagi antropomorfik metaforalarni o‘rganib, leksikografik tadaqiq etish, lug‘at tuzish lozim.

Nasriy matnlarga qaraganda she‘riy asarlarda metaforaning o‘ziga xos yangi turlarini ko‘p uchratish mumkin. Nutq uslublari nutqai nazaridan taqlil qiladigan bo‘lsak, ilmiy, rasmiy uslublarda ham oz bo‘lsa-da metafora qo‘llaniladi. Badiiy uslubda eng ko‘p qo‘llaniladi. :

Metaforalarning matnlarda qo‘llanilish darajasini taqriban quyidagicha taqsimlash mumkin:

T/r Rasmiy uslubdagi matnlarda Ilmiy uslubdagi matnlarda Badiiy uslubdagi matnlarda
Publitsistik uslubdagi matnlarda So‘zlashuv uslubidagi matnlarda

1. 10 foiz 15 foiz 60 foiz 15 foiz 10 foiz
2. Siyosiy metafolar Ilmiy metaforalar She‘riy metaforalar Sport jurnal-ka doir metaforalar
Odiy metaforalar

Til vositalari nutqiy vaziyatlarda o‘zining imkoniyatini to‘la namoyon qila oladi. badiiy matnlr sotsiologivistik aspektda o‘rganilganda mualliflar metaforalardan naqadar samarali foydalanilgani ma‘lum bo‘ldi, taqlil uchun tanlab olingan she‘rlar, nasriy matnlr taqlili asosida bob yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

She‘riyatda metaforalarning, xususan, antropomorfik metaforalarning o‘ziga xos o‘rni bor, matn muallifi she‘rda metafora hosil qilishda inson tana a‘zolari emas, asosan, shaxsga xos harakat va holatlardan faol foydalangan, “bosh”, “ko‘z”, “jigar” kabi ayrim so‘zlarning metaforik ma‘no ifodalashi biz tadqiqot obe‘kti qilib olgan she‘rlarda juda kam kuzatildi.

Til va uning birliklari avvalo, ijtimoiy hodisa sifatida sotsiologivistik tadqiq etilishi lozim. Biroq keyingi yillarda olib borilgan aksariyat tadqiqotlar kognitiv-pragmatik yoki stilistik ahamiyat kasb etadi. Antropomorfik metaforalar o‘zbek tili va adabiyotini yangi badiiy tasviriy vositalar bilan boyitgani aniqlandi. She‘riy va nasriy matnlr o‘rganilganda metafora hosil bo‘lishi uchun, so‘zlar o‘ziga xos sintaktik munosabat, semantik aloqaga kirishgani, bu jihatdan ko‘proq she‘riy matnlarda harakatni, holat ifodalagan so‘zlar shoirning ruhiy holatini namoyon qiluvchi metaforalar ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Tilshunoslikda lisoniy birliklarning grammatik, stilistik, lingvopoetik, psixologivistik, kognitiv-pragmatik tadqiq etilishi nihoyatda muhim ahamiyatga ega, biroq til birliklari, jumladan, antropomorfik metaforalar sotsiologivistik taqlil qilinsa, lisoniy vositalarning ijtimoiy holati, ahamiyati, lisoniy qiymati yanada aniqlashgan bo‘lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qobulova U.S. Metaforik matnda integral va differensial semalar munosabati (o‘zbek xalq topishmoqlari misolida). Fil.fan.nom. ilmiy dar. olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – T., 2007.
2. Xudayberganova D.S. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. –T., 2015. –B.18.
3. Xo‘jamqulov A. O‘zbek tilida metaforaning tasniflanishiga doir. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20yilligiga bag‘isqlab chiqarilgan ilmiy maqolalar to‘plami. Lingvist. 2kitob. – T.: Akademnashr, 2011. – B. 85–88.
4. Shavkat Rahmon Abadiyat oralab – Toshkent, 2012. 56-59-b.